

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)
№ 11- sonli

Urganch tumani

«27» may 2022 yil

Keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Urganch tumani Xalq ta’limi bo‘limi** mudiri nomidan **Nizom** asosida ish ko‘ruvchi raxbar **O.Abduraximov** bir tomondan, keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «**Xorazmirmontaj**» MCHJ nomidan **Nizom** asosida ish ko‘ruvchi **E.Islomov** ikkinchi tomondan **Urganch tuman Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 4-son umumiy o‘rta ta’lim maktab binosini buzish (snos) ishlari** bo‘yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA’RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta’riflar qo‘llaniladi;
- **ijro xujjatlari** – 4-son umumiy urta ta’lim maktab binosini buzish (snos) ishlarini bajarish daftarlari xamda maktab binosini buzish (snos) ishlari normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;
 - **4-son umumiy urta ta’lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob’yektning buzish (snos) ishlari maydoni chegarasi ajratib ko‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi;
 - **vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan 4-son umumiy urta ta’lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonida o‘rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Smeta xujjatlarida ko‘zda tutilgan loyixa bo‘yicha ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO‘YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o‘z ichiga olgan xolda Urganch tuman XTBga qarashli 4-son umumiy o‘rta ta’lim maktab binosini buzish (snos) ishlarini narxlarda jami **79 000 000,0 (Yetmish to‘qqiz million) sum.**
4. Ishlar qiymati uzil-kyesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:
- buzish (snos) ishlari qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo‘lganda;
 - ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;
 - ob’yektning buzish (snos) ishlarini bir yildan ortiq muddatga o‘zgartirilganda.
5. buzish (snos) ishlari muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
 - buzish (snos) ishlari maydoniga zarur materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta’minlaydi;

- maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
- binosini buzish (snos) ishlari tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- mazkur shartnoma bo'yicha ob'yektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda snos maydonini o'ziga tegishli mashinalari va asbob – uskunolari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar buzish (snos) ishlari materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
- buzish (snos) ishlari maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
- buzish (snos) ishlarida tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni tuliq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'yekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'yektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentasiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'yektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqsiz bo'lgan 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonini ob'yekt maktab binosini buzish (snos) ishlari tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura- buzish (snos) ishlari nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
- Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;
- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;
- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'yektni **15 kalendar kunida** foydalanishga topshirilishi belgilanadi .

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar Urganch tuman XTBga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlariga 30 % miqdorida avans o'tkazadi, bu **23 700 000 ,0 (Yigirma uch million yetti yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans mablag'lar 5 banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tomonidan Urganch tuman XTBga karashli 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlarini moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'yekt 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'yekt binosini buzish (snos) ishlari zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'yekt ishlariida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu ob'yekt maktab binosini buzish (snos) ishlarining boshqa xarajatlariga qatt'iy sarflanadi.

21. Pudratchi buzish (snos) ishlarini moliyalashtirish uchun xisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun maktab binosini buzish (snos) ishlari montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-faktura»ni o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan buzish (snos) ishlari-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga ishlarini moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan ishlari-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonida o'z vakilini yoki texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

25. Berkitilgan vakil yoki tyexnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi berkitilgan vakil yoki texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkitilgan vakil tyexnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'yektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlarini tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGI BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlarini bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya kilish uchun kanday choralar 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlariini muxokama kiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

X. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjatlariga xamda 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan buzish (snos) ishlari uchun qo'llaniladigan 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikasiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;
- ishlarni qabul kilish va ob'yektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'yektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XI. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin Urganch tuman XTBga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlarini boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;
 - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- konun xujjatlariga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim koidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yo'l qo'yilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 395 sonli qarori bilan, boshqa qonun hujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'yektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul kilish uchun takdim kilingan ob'yektni asossiz ravishda qabul kilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarining bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'yektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxonaga atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tug'ri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% dan oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

VII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

49. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Pudratchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XIV. ALOXIDA SHARTLAR

50. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

51. Pudratchi 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari ob'jektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

52. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

54. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi 4-son umumiy urta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari maydonini ozod qilish shanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolanib Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va ushbu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.


57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

«Xorazmirmontaj» MCHJ	Urganch tumani Xalq ta'limi bo'limi
Manzil: Urganch sh. Sanoatchilar kuchasi 3 uy	Manzil: Urganch t. Mustaqqilik ko'chasi 35 uy
Telefon: ---	Telefon: 35-21-501
x/r: 20 208 000 600 431 764 001	x/r: 400122860332177092100075044
INN: 200 407 870	INN: 201661399 OKED: 84112
TIF Milliy bank	Moliya vazirligi gaznachiligi
MFO: 00547	x/r: 23402000300100001010
OKED: 61110	Bank: Markaziy bank Tosh.sh.
	MFO: 00014 INN: 201122919



Rahbar E. Islomov



Rahbar _____ O. Abduraximov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

“Xorazmirmontaj” MChJ bilan Urganch tumani Xalq ta’limi bo’limi bilan 27.05.2022-yilda tuzilgan 11-sonli “Pudrat” shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va xujjat sanasi haqidagi ma’lumot:

Urganch tuman xalq ta’limi bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan. Hujjat raqami va sanasi SD20560362, 26.05.2022-yil.

4. Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga javob beradi. Loyihada o‘zaro hisob-kitob qilish tomonlarning ma’suliyati, javobgarligi hamda nizolarning hal qilish tartibi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Urganch tuman yuridik xizmat ko’rsatish
markazi bosh yuriskonsulti

27.05.2022-yil



B.R.Yusupov

Urganch tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari bo'yicha oylar davomida ishlarni moliyalashtirish grafigi

1-ilova

T/R	Ob'yekt nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun moliyalashtirish qiymati												
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak			
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
1	Urganch tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari	79 000 000,0													
	Avans summasi	23 700 000,00						23 700 000,00							
	Bajarilgan ish uchun	55 300 000,00						55 300 000,00							



Buyurtmachi

Handwritten signature



Podratchi

Urganch tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari buyicha oylar davomida ishlarni bajarish grafigi

2-ilova

T/R	Ob'yekt nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun ishlarni bajarish kiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Urganch tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 4-son umumiy o'rta ta'lim maktab binosini buzish (snos) ishlari	79 000 000,0						79 000 000,0						



Buyurtmachi

Urganch



Podratchi